

**O‘ZBEKISTONDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH: KOMPLEKS
YONDASHUV VA YANGI MEXANIZMLAR****Levakov Izzatulla Nematillayevich**

i.f.f.d, v.b dots,

“University of Business and Science”,

“Menejment” kafedrası mudiri

izzatillalevakov@gmail.com

+99888-441-05-09

O‘ktamov Shoxruxbek Ulug‘bek o‘g‘li

“University of Business and Science”

2-bosqich magistranti

shohkrukhuktamov2404@gmail.com

+99891-117-07-03

Annotatsiya mazkur maqolada O‘zbekistonda norasmiy bandlikni qisqartirish va mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar tahlil qilingan. Xususan, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari hamda vazirlik va idoralararo hamkorlik asosida ishlab chiqilgan normativ-huquqiy mexanizmlar yoritilgan. Norasmiy bandlikni aniqlash, raqamli tizimlar orqali nazoratni kuchaytirish, ish beruvchilarni rag‘batlantirish va javobgarlik choralari kuchaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari asosida mehnat bozori monitoringi va ishchi kuchi kuzatuvlari orqali norasmiy bandlikni baholash mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: norasmiy bandlik, rasmiy mehnat munosabatlari, mehnat bozori, yashirin iqtisodiyot, Yagona milliy mehnat tizimi, mehnat huquqlari, davlat nazorati.

Аннотация в статье рассматриваются комплексные меры, реализуемые в Республике Узбекистан по сокращению неформальной занятости и легализации трудовых отношений. Проанализированы нормативно-правовые акты, принятые на основе межведомственного взаимодействия, а также механизмы государственного контроля и цифровизации в сфере труда. Особое внимание уделено вопросам выявления неформальной занятости, стимулирования работодателей к официальному оформлению работников и усиления мер ответственности. Также освещены подходы к мониторингу рынка труда и учёту неформальной занятости на основе рекомендаций Международной организации труда.

Ключевые слова: неформальная занятость, легализация труда, рынок труда, теневая экономика, национальная система труда, трудовые права, государственный контроль.

Abstract this article analyzes the comprehensive measures implemented in Uzbekistan to reduce informal employment and formalize labor relations. It reviews key presidential decrees, government resolutions, and interagency initiatives aimed at strengthening state oversight, digitalizing labor processes, and improving labor rights protection. Particular attention is given to mechanisms for identifying informal employment, incentivizing employers to formalize workers, and enhancing liability measures. The article also examines labor market monitoring practices based on International Labour Organization (ILO) recommendations, including labor force surveys and employment balance methodologies.

Keywords: informal employment, labor formalization, labor market, shadow economy, national labor system, labor rights, state regulation.

Norasmiy mehnat faoliyatini rasmiylashtirish bir nechta vazirlik va idoralar tomonidan kompleks yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 16-yanvardagi PF-11-son Farmoni qabul qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuraturasi, Hisob palatasi va Markaziy bankining 2025-yil 9-oktyabrdagi qo'shma farmoyishi imzolangan hamda "Norasmiy bandlikni qisqartirish va "konvertida" olinayotgan oyliklarni rasmiylashtirish bo'yicha Respublika ishchi guruhi tarkibi" tashkil etilgan.

Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan hujjatlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ-347-son hamda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2025-yil 7-noyabrdagi 706-son qarorlariga asosan:

Munosib mehnat tamoyillari va xalqaro standartlarni joriy etish, mehnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, mehnat huquqlarini himoya qilish, shuningdek, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash, shuningdek, ishsizlik va norasmiy bandlik darajasini va tarkibini muntazam ravishda, shu jumladan, aholi bandligini aholi o'rtasida so'rovlar o'tkazish orqali tahlil qilish Vazirlikning asosiy funktsiya va vazifalari hisoblanadi.

Bugungi kunda, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidannorasmiiy mehnat faoliyatini rasmiylashtirish quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- norasmiiy bandlik faoliyati hamda holatlarni aniqlash va tahlil qilish;
- norasmiiy bandlikni masofadan turib aniqlash bo'yicha sohani raqamlashtirish bo'yicha ishlarni takomillashtirish;
- xodimlarni rasmiy ravishda rasmiylashtirish maqsadida ish beruvchilarni rag'batlantirish;
- norasmiiy mehnat faoliyatining ijtimoiy oqibatlari hamda rasmiy mehnat faoliyatining afzalliklari to'g'risida aholining xabardorligini oshirish va targ'ibot ishlarini amalga oshirish;
- norasmiiy mehnat faoliyatini tartibga solish bo'yicha milliy qonunchilikni takomillashtirish.

Davlat mehnat inspeksiyasi xodimlari hokim yordamchilari bilan birgalikda korxonalarda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan ishchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Yagona milliy mehnat tizimi"ga kiritilganligi bo'yicha xatlov o'tkazilmoqda.

Shuningdek, iqtisodiyotning qurilish, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida nazorat tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, norasmiiy bandlikni qisqartirish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yo'nalishida ham bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan:

1) Xodimlarni norasmiiy ishlatganlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda alohida javobgarlik belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar bilan mehnat shartnomalarini rasmiylashtirmagan ish beruvchilarga nisbatan qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari yanada kuchaytirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish haqida"gi Qonuni loyihasi ishlab chiqildi.

Bunda, birinchi marta sodir etganlik uchun BHMning 30 baravarigacha, bir yil mobaynida takroran sodir etganlik uchun BHMning 100 baravarigacha oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

2) "Yagona milliy mehnat tizimi" orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar (mehnati shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazmaslik, ma'lumotlarni tizimga kiritmaslik, oylik ish haqini qonunchilikda belgilangan eng kam oylik ish haqidan kam to'laganlik va b.) uchun jarima solish to'g'risidagi qaror ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning ishtirokisiz elektron tarzda qaror qabul qilishninazarda tutuvchi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish haqida"gi Qonun loyihasi ishlab chiqildi.

3) Respublika Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoni bilan 2026-yildan boshlab, Qurilish sohasida norasmiy bandlik bo'yicha qonunbuzilishi holatlariga yo'l qo'ygan ish beruvchilarning "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimidagi reyting ballarini pasaytirish tizimini joriy etish belgilandi. Mazkur tartib 2026-yildan boshlab kuchga kiradi.

4) Davlat mehnat inspektorlari tomonidan tekshiruvlar o'tkazish tartibini tasdiqlash to'g'risidagi Hukumat qarori loyihasi ishlab chiqilmoqda. Bunda, norasmiy bandlik holatlari bartaraf etilib, YAMMT ga kiritilgandan keyin oylik ish haqi to'lamaslik holatlarini qayta tekshirish imkoniyati yaratilmoqda.

5) Xodimlari soni 50 nafargacha bo'lgan xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va qurilish sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga YAMMTda biometrik identifikatsiya qilish (Face-ID) orqali elektron mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilishni rasmiylashtirish imkoniyati joriy etilmoqda.

Respublika bo'yicha 2025-yilning 1-oktyabr holatiga 15,6 mln iqtisodiy faol aholi mavjud bo'lib, ularning 14,8 mlni band bo'lganlarni tashkil etadi.

Jami band bo'lgan aholining 4,4 mln (shundan 2,3mln xotin qizlar) iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlarni tashkil etib, ularning 1,3 mln vaqtinchalik bir martalik va mavsumiy ishlarni bajaruvchilar, 744,9 ming mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan oilaviy korxonalarda va tadbirkorlarda ishlovchilar, 1,3 mln ro'yxatdan o'tmasdan va tegishli ruxsatnomasiz faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar, 1,3 mln yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida band bo'lganlarni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 22-dekabrda 1011-son qaroriga asosan, hududlarda har chorak yakuni bilan mehnat resurslari balansini shakllantirish, aholi bandligi va ishsizlik hisobini yuritish bo'yicha ishchi kuchi kuzatuvlari o'tkaziladi.

2015-yil 1-iyundagi Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasida 204-sonlinorasmiy iqtisodiyotdan rasmiy iqtisodiyotga o'tish bo'yicha tavsiyasi qabul qilingan.

Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 22-dekabrda 1011-son qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan metodika asosida har chorakda mehnat resurslari balansini shakllantirish, aholi bandligi, jumladan norasmiy bandlik va ishsizlik hisobini yuritish bo'yicha ishchi kuchi kuzatuvlari o'tkaziladi hamda ma'lumotlar shakllantiriladi.

Norasmiy bandlikni qisqartirish va javobgarlik mexanizmlarini belgilash bo'yicha hamda mazkur jadvalning 2-bandida keltirib o'tilgan normativ-huquqiy hujjatlar Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari va standartlari hamda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalangan holda ishlab chiqilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshturg'un Ergashev. "Bozor iqtisodiyoti". – T.: "O'qituvchi" nashriyotmatbaa ijodiy uyi;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.02.2022 yildagi 83-son | <https://lex.uz/docs/-5870397>
3. Nematillayevich L. I. et al. NORASMIY BANDLIKNING MEHNAT BOZORIDAGI O'RNI VA IJTIMOIIY XAVFLARI //Latin American journal of education. – 2025. – T. 5. – №. 6. – C. 124-132.
4. Nematillayevich L. I. et al. NORASMIY ISH O'RINLARINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI //IMRAS. – 2025. – T. 8. – №. 11. – C. 75-81.
5. Nematillayevich L. I. et al. STATE PROGRAMS AND PROSPECTIVE STRATEGY FOR PROMOTING EMPLOYMENT THROUGH THE REDUCTION OF INFORMAL JOBS IN THE LABOR MARKET //INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. – 2025. – T. 4. – №. 38. – C. 373-377.
6. Nematillayevich L. I. et al. INTERNATIONAL LEGAL NORMS FOR PROMOTING EMPLOYMENT THROUGH THE REDUCTION OF INFORMAL JOBS IN THE LABOR MARKET //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – T. 4. – №. 37. – C. 144-146.
7. Nematillayevich L. I. et al. MEHNAT BOZORIDA NORASMIY ISH O'RINLARINI KAMAYTIRISH HISOBIGA BANDLIKKA KO'MAKLASHISHNING XALQARO-HUQUQIY NORMALARI. – 2025.
8. Nematillayevich L. I. ISHLAB CHIQRISHNI GORIZONTAL DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLARI //MATERIALLARI TO'PLAMI. – 2025. – C. 73.
9. Nematillayevich L. I. et al. NORASMIY IQTISODIYOTDAN RASMIY IQTISODIYOTGA O'TISH: QIYINCHILIKLAR VA IMKONIYATLAR. – 2025.
10. Nematillayevich L. I. et al. TRANSITION FROM THE INFORMAL ECONOMY TO THE FORMAL ECONOMY: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES. – 2025.

11. Ne'matillayevich L. I. et al. MEHNAT BOZORIDA NORASMIY ISH O'RINLARINI KAMAYTIRISH HISOBIGA BANDLIKKA KO'MAKLASHISH YO'LLARI //AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 21-26.
1. 10. Izzatulla L. CHARACTERISTICS OF HIGHER EDUCATION SERVICE PROVIDING ORGANIZATIONS //ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071. – 2023. – T. 12. – №. 01. – C. 21-28.
12. Izzatulla L. PROVIDING EFFECTIVE ACTIVITY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET, DEVELOPING A DEVELOPMENT STRATEGY //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2023. – T. 17. – №. 01. – C. 9-14.
13. Levakov I. THE ROLE AND PLACE OF SERVICE SECTORS IN THE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION //СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2023. – С. 130-132.
14. Nematillaevich L. I. Main characteristics, theoretical issues of effective management strategies in higher education //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – C. 97-101.
15. Nematillaevich L. I. Conceptual Foundations Of Effective Management In Higher Education Organizations //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – C. 90-96.
16. Nematillaevich L. I. IMPROVING THE MECHANISMS FOR DEVELOPING EFFECTIVE MANAGEMENT STRATEGIES IN HIGHER EDUCATION //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – №. 08. – C. 1-8.